



THE IMPORTANCE OF MYSTICAL VALUES IN HUMAN DEVELOPMENT

Jasur Nasirdinovich Ulugov

Teacher

Samarkand Campus of the University of Economics and Pedagogy

ulugov_jasur@mail.ru

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Sufism, value, spiritual perfection, Islamic enlightenment, Sufi pedagogy, informal education, faith, creed, spiritual value.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 03.12.25

Abstract: The article provides a comprehensive scholarly analysis of the ethical and spiritual values inherent in Sufism and examines their role in shaping the moral development and cultural maturation of the nation. It explores the profound influence of Sufi teachings on the spiritual elevation of society and their contribution to both individual inner growth and social harmony. The study also conceptually distinguishes the educational objectives of Sufism from its spiritual-mystical aims, highlighting their unique characteristics. Furthermore, the practical significance of Sufi values in personal moral refinement is illustrated through an in-depth examination of the works of So'fi Olloyor, whose writings serve as a key example of the transformative power of Sufi thought.

INSON KAMOLOTIDA TASAVVUF QADRIYATLARINING AHAMIYATI

Jasur Nasirdinovich Ulug'ov

O'qituvchisi

Iqtisodiyot va pedagogika Universiteti Samarqand kampusi

ulugov_jasur@mail.ru

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tasavvuf, qadriyat, ma'naviy kamolot, islom ma'rifati, so'fylar pedagogikasi, noformal ta'lm, imon, aqida, ma'naviy qadriyat.

Annotatsiya: Maqolada tasavvufga xos bo'lgan axloqiy-ma'naviy qadriyatlarning milliy ma'naviyat taraqqiyoti va shaxs kamolotidagi o'rnini har tomonlama ilmiy tahlil

qilingan. Tadqiqotda tasavvufning jamiyat ma'naviy yuksalishiga ko'rsatadigan ta'siri, uning inson ruhiyati va ijtimoiy hayotdagi o'ziga xos funksiyalari chuqur sharhlanadi. Shuningdek, tasavvufiy ta'limotning ta'limiy maqsadlari bilan ruhoniyyat-ma'rifiy maqsadlari o'rtasidagi farqlar konseptual jihatdan izohlanadi. Maqolada tasavvuf qadriyatlarining ma'naviy kamolotga ta'siri amaliy misollar orqali ochib berilib, xususan, So'fi Olloyor merosi va uning asarlarida ilgari surilgan ruhiy-axloqiy g'oyalar asosiy tahlil ob'ekti sifatida o'rganilgan.

ЗНАЧЕНИЕ МИСТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕКА

Джасур Насирдинович Улугов

Учитель

Университет экономики и педагогики Самаркандский кампус

ulugov_jasur@mail.ru

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Суфизм, ценность, духовное совершенствование, исламское просвещение, суфийская педагогика, неформальное образование, вера, акида, духовная ценность.

Аннотация: В статье всесторонне анализируются духовно-нравственные ценности суфизма и их значение в процессе формирования национального мировоззрения и нравственного совершенствования личности. Автор показывает влияние суфийского учения на духовное возвышение общества, раскрывая его роль как важного фактора гармонизации внутреннего мира человека и общественной жизни. В работе также концептуально разграничиваются образовательные задачи суфизма и его духовно-мистические цели. Практическая значимость суфийских ценностей рассматривается на основе анализа трудов Суфи Оллоёра, произведения которого служат наглядным примером воздействия суфийской мысли на формирование высоких моральных качеств.

Kirish. Ma'naviy kamolotga erishish inson taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Ammo uning tarixiyliigi va zamonaviyiligi o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etib, zamon va makon prinsiplariga moslashtirish dolzarb masaladir.

Markaziy Osiyo ma'naviy taraqqiyotida tasavvuf falsafasining qat'iy o'rni bo'lib, undan butunlay voz kechishning hecham iloji yo'q. Aksincha, qadriyat holatiga kelib qolgan tariqat

ahkomlarini ilmiy asoslash milliy ma'naviyatimizni kamol topishiga yo'l ochib beradi. Ma'naviyat ijtimoiy turmush talab va ehtiyojlarini o'zida ifoda etishini inobatga oladigan bo'lsak, tasavvuf insonlar va davr talabi ekanligini guvohi bo'lamiz. Tasavvufni yuzaga kelishi bo'yicha turlicha qarashlar mavjud bo'lsada, uni oziqlantiruvchi kuch islom dini ekanligida barcha olimlar yakdildirlar. Bunday istisnolar juz'iydir.

O'lkamizga tasavvufning kirib kelishi va mahalliy aholining unga ijobiy munosabati yurtimizda so'fizm g'oyalariga hamohang mafkuraning azaldan mavjudligidan darak beradi. Movarounnahr muhitiga mos tariqatlarni yaratilib, ijtimoiy munosabatlarda to'la joriy etilishi, aksiologik nuqtai nazardan, kamolotga yetaklovchi ma'naviy qadriyatlarning shakllanishiga sabab bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, o'lkamizga islom dini bilan birgalikda islom ma'rifati ham kirib keldi. Tavsir, hadis, fiqh, kalom kabi islomiy bilimlar qatori tasavvufiy ilm ham keng yoyildi. Markaziy Osiyoda hukmron mazhab maqomini egallagan sunniylik-xanafiylik o'lkada so'fiyona qarashlar va turmush tarzining shakllanishida muhim omillardan biri bo'lgan. Zohidlik davri yakuni bilan tasavvuf maktablarning shakllanishi o'rtasidagi uzluksizlik islom taqvo masalalarini tasavvuf mohiyati deb tushunishga olib keldi. Ana shunda tasavvuf ta'rifini ilmiy asoslash lozim bo'ldi. Tarixiy manbalarda tasavvufga berilgan ta'riflarning turlicha bo'lishiga sabab so'fizmgaga bo'lgan pozitsiyaning turlicha-zohidona, orifona, oshiqona, rindona ekanligidadir. Masalan, Abdulqahhor Shoshiyning "Avliyolar kitobi"da "Tasavvuf insonning ruhan, jismonan va axloqan kamolot cho'qqisiga erishishiga ko'maklashish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatuvchi tartib-qoidalar majmuasidan iborat"- deyiladi. Shayx Zulfiyor Ahmad Naqshbandiyni "Tasavvuf vas-suluk" asari tarjimasi va izohlariga bag'ishlangan Abdulqodir Abdurahimning "Tasavvuf va nafs tarbiyasi" kitobida tasavvufning yigirmadan ortiq ta'rifini beradi. Ta'riflar turlicha bo'lsada, ularning maqsad muddaolarini birlashtirib turuvchi yagona maslak komil inson tarbiyasidir. Ma'naviy ahloqni tasavvufning asosiy belgisi degan fikrlar juda ko'p ta'riflarda uchraydi. Husayn Voiz Koshifiy "Futuvvatnomai sultoniy" asarida tasavvufga yettita ta'rif berar ekan, birinchisida hulqni ulug'laydi: "Birinchidan, tasavvufni taxliya yani holi bo'lmoq, qalbni bo'shatmoq va yaxshi, maqtalgan ahloqdir"-deydi.

Keying davr adabiyotlarida ham tasavvufga berilgan ta'riflar ma'nan o'sish, kamolotga yetishish mazmunidan tashqarida emas. Najmiddin Komilov "Tasavvuf" asaridagi keltirgan ta'riflariga etimologik yondoshgan bo'lsada, butun asar davomida olim tasavvuf ma'rifatini, inson kamolotidagi o'rnini e'tirof etib boradi. Olimning Hamidjon Homidiyning "Tasavvuf allomalari" asariga yozgan so'zboshisida quyidagi jumalarni o'qiyimiz: "Tasavvuf asrlar

davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan. Insonning ruhiy-axloqiy poklanishi, ilohiy muhabbat bilan yuksalib borishi bu ta'limotning asosiy g'oyalari. Shuningdek, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Tasavvuf haqida tasavvur" kitobida tasavvufning lug'aviy ma'nosi bilan birgalikda istilohiy ma'nolarida ham tortishuvlar mavjudligini ta'kidlab, bir nechta ta'riflarni misol keltiradi. Jumladan, "Tasavvuf ilmi-so'fiylar e'tiqod qiladigan narsalar va o'z jamoalarida hamda yolg'iz qolganlarida ushlaydigan odoblaridir"-deydi (Maqsad tasavvuf ta'rifi bo'lmaganligi uchun boshqa ta'riflarga to'xtalilmadi).

Tasavvuf taraqqiyoti tarixida XV asrdan keying davr bir muncha sustlashganini tan olmasdan iloj yo'q. So'fiyona ruhda yozilgan qariyb, barcha asarlarda xalq ma'rifatidan kuyunishni kuzatamiz. Jo'shqin harakat susaygandek ko'rinadi. XVII asr mutafakkiri So'fi Olloyorning tasavvuf ta'limotiga bag'ishlangan "Murod ul-orifin" asari ham ta'limotni bir qadar yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tara oldi. Naqshbandiya-majididiya yo'nalishida faoliyat olib borgan mutafakkir jamiyat taqdiri uchun o'zini mas'ul deb biladi. Ruhiy-ma'naviy ozuqaga tashna kishilar uchun "Murod ul-orifin" asari katta ilmiy qiymatga ega edi. Yaratuvchini tanitish jamiyat islohinining bosh mezoni deb qaraldi. Zero, yaratuvchisini qalb nuri bilan taniganlar ahli ma'rifat bo'lib, Alloh har kimning qalbida, uni tanish, sezish uchun imkoniyat yaratadi, yo'l ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tasavvufni faqatgina xoslar uchun deb tushunish xatodir. U ijtimoiy munosabatlardagi o'g'irlik, qotillik, zino kabi gunohi kabiralardan tortib, birovga tili bilan ozor berish, yolg'on so'zlamalik kabi illatlarga ham qarshi kurashadi. Uning ta'limiy va ruhoniylar maqsadlarini bir-biridan farqlash lozim. Imom G'azzoliy tasavvufni botiniy ilmlar sirasiga kiritadi. To'g'ri, mujohada, muroqaba, mushohada, maqom, hol kabi martabalar so'fiylar uchun xosdir. So'fizmni empirik yoki rasmiy mantiq asosida tushunish mumkin bo'lmaganligi uchun ommaga yetib bo'lmas bilimday ko'rindi. Tasavvufni jamiyat ma'naviyatining yuksalishidagi o'rnini to'g'ri anglagan so'fiylar barcha uchun tushunarli qilib yoritishga harakat qildilar. Ammo tasavvufda irrotsional bilish ustunlik qilgani uchun noformal ta'lim deb qaraldi. Shuning uchun ham fiqh, hadis kabi ta'limning barcha jabhalarida tizimli tarzda ommaviy o'qitilmadi. Mana shu masalada, ya'ni tasavvufni xoslar ilmidan ommaviyga o'tkazish jarayonida ko'plab ixtiloflar kelib chiqdi. Tasavvufni kamolot ilmi ekanligi ma'lum, ammo uni xalqqa tushuntirish mashaqqati yuzaga chiqdi. So'fiylar o'z pedagogik imkoniyatlarini ishga solishlariga to'g'ri keldi.

Tasavvufiy ta'limotning ta'limiy maqsadlarini ham ikki qismga bo'lib olmoq lozim. Birinchisi, so'fiylarni yetishtirib chiqarishga mo'ljallangan ta'lim. Ikkinchisi, jamiyatdagi ma'naviy-ruhoniylar munosabatlarni izga solib turuvchi ta'lim.

So'fiylar pedagogikasida shogirdlarni yetishtirishda har bir ustoz tariqat nuqtai nazaridan o'z programmasiga asoslansada, barcha tariqatlar Alloh vasliga yetishish orqali kamolotni tarannum etadi. Shogird tarbiyasida faqatgina unung bilimni oshirish maqsad qilib olinmasdan, ma'naviy-ruhiy va jismoniy imkoniyatlarini ham oshirib borish ko'zda tutiladi. Shuning uchun ham so'fizmda ustoz-shogird munosabatlari tarbiya bilan uyg'unlashadi. "Bilim olgan" emas, "tarbiyalangan" degan so'z ulug'vor ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatdagi ma'naviy-ruhoniylar munosabatlarni izga solishda ham tasavvufning ahamiyati kattadir. Tasavvuf Markaziy Osiyoga tegishli milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgani yaqqol ko'rinadi. U xalq orasidagi axloqiy, ruhiy va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamladi. Halollik, sabr-toqat, kamtarlik, tavoze kabi fazilatlar targ'ib qilindi. Naqshbandiylikning "Xalq ichra bo'l, ammo xalqdan farqli bo'l" degan g'oyasi jamoatchilik hayotini boyitdi. Tasavvufda har bir insonning ichki pokligi, Allohga yaqinligi qadrlanadi. Shu asosda shaxsiy mas'uliyat kuchaytiriladi. U islomga qadar mavjud bo'lgan qadimiy odob-axloq (tabiatga hurmat, oqsoqollik instituti) kategoriyalari bilan qarama-qarshi emas. Aksincha, ularni imon bilan boyitib, uyg'unlashdi. Ota-onaga hurmat, mehmondo'stlik, mahalladagi birdamlik, vatanparvarlik tasavvufda ham muhim. Amaliy hayotdagi in'ikosda xalq orasidagi diniy-ma'rifiy ishlar, axloqiy tarbiya, irodani chiniqtirish va nafsga qarshi kurash prinsiplarini keng yoyilishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkaza oldi. Jamoada sharqona bo'ysunuvchanlik (ota-farzand, aka-uka, er-xotin, boshliq-xodim) qoidalarini qat'iylashtirdi, bozor munosabatlarni tartibga soldi. Davlat boshqaruviga adolat vakinasini kiritdi.

Tahlil va natijalar. Tasavvufning tarixiy va madaniy kontekstdagi o'rni shuni ko'rsatadiki, u orqali ma'naviy tarbiya faqat diniy emas, balki madaniy-ma'rifiy shaklda amalga oshirilgan. Moddiy qadriyatlarga munosabat ustunlik qilayotgan bugungi kunimizda kishilarni ruhiy bo'shliqdan olib chiquvchi yagona vosita bu ma'naviyatdir. Milliy ma'naviy qadriyatlarimizni anglash uchun tasavvufni to'la anglash muhim bo'lib bormoqda. Tasavvufni ruhiy barqarorlik, ichki xotirjamlik, maqsadli hayot tarzini shakllantirishdagi roli kuchaymoqda. Global muammolar sharoitida tasavvuf qadriyatlarini ijtimoiy muhitning profilaktikasi sifatida taklif qilish mumkin.

Tariqatlarga tegishli barcha manbalardagi kabi So'fi Olloyor asarlarida ham ma'naviy qadriyatlar talqini Haq Taoloni tanish bilan boshlanadi. Shuningdek, mutafakkir ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga urg'u berish bilan birga islomiy, tasavvufiy va milliy an'analar umumiyli

va xususiyligiga ham kata e'tibor beradi. Ammo barcha qarashlarida "nur-islomdan" degan g'oya ustunlik qiladi. Mutafakkir asarlarida eng ko'p uchraydigan ma'naviy tushunchalarni (sabr, tavba, nafs, ma'rifat, ilohiy ishq) miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ezoterik (botiniy) kechinmalar xalq manfaatidan ustun kela olmagan. Shariat andozasidagi turmush tarziga xalqni boshlash javobgarligi doimo zimmasida turganligini his qilgan.

So'fi Olloyor asarlariga bitilgan sharhlarning aksariyatida ana shu mazmunga e'tibor qaratib qolingani uning ma'naviy ozuqasini bir muncha sustlashtirgandek bo'ladi. Shuning uchun ham Rashid Zohid "Sabot ul-ojizin" sharhiga bag'ishlangan "Ravohihur rayhon" asarida muayyan manbani o'rganishda mazmun izohi bilan chegaralanish sharhni faqat o'sha manba uchun xoslab qo'yishini, jarayonda qo'lga kiritilgan tajribaning ommalashuviga imkon bermasligini ta'kidlab, mazmun tadqiqi bilan parallel ravishda shaklga ham jiddiy e'tibor qaratishni aytib o'tadi. Umuman olganda, shaklan o'ziga xos, mazmunan boy, ommaga mo'ljallangan bu asarlar nafaqat tarbiyaviy, balki ta'limiy dasturga aylana oldi.

XVII asr ma'naviy tanazzulining asosiy sabablarini Shuhrat Sirojiddinov "So'fi Olloyor ilohiyoti" nomli monografiyasida to'rt qismga bo'ladi: Birinchi, Temuriylar davridan keying inqiroz, ikkinchi, tariqat pirlarini siyosiy boshqaruvga intilishi, uchinchi, tariqat peshvolarini ilohiylashtirish, soxta karomatgo'ylikka intilish, to'rtinchi, yangi o'troqlashayotgan o'zbek etnik qatlamlarining madaniyatida xurofiy urf-odatlarining saqlanib qolganligi. Ma'naviy kamolotga zarba beruvchi bunday illatlarga qarshi kurashda mutafakkir ikki yo'nalishda faoliyat olib borishiga to'g'ri keldi. Birinchisi, avom un-nos, ikkinchisi jamiyatning ziyoli qatlami edi. Sharq pedagogikasida ziyolilarning ijtimoiy mavqei ular ustidan xalq nazoratini cheklab turishini inobatga oladigan bo'lsak, mutafakkir faoliyatining dolzarb qismi ikkinchisi bo'lib chiqadi. Lekin muammo faqat ta'limda emas, balki ma'naviy-e'tiqodiy masalalar ustida borayotganda xalq irodasi katta kuch ekanligini yodda tutish kerak. Ma'lumki, So'fi Olloyor tarixda dastlab siyosiy obraz sifatida gavdalanadi. Jamiyatni ma'naviy inqirozdan qutqarish fikri lavozimni tark etgandan keyin paydo bo'lgan emas. Bu fikr avval boshdanoq mavjud bo'lib, uni o'sha davr siyosiy elitasi tarkibida qolib, amalga oshirib bo'lmaz edi. Chunki, oddiy xalq lavozimdagi har qanday shaxsdan shubhalanib qolgan edi. Xalqni o'z ortidan ergashtirishning ma'naviy tomonlaridan tashqari(to'g'ri so'zlik, halollik kabi) mulk senziga tegishli jihatlari ham bor. Zero, boy shayxdan kambag'alparvar shayx ishonchliroqdir. Shuning uchun ham So'fi Olloyor lavozimidan voz kechib, o'z diniy-tasavvufiy qarashlarini badiiy-tashviqiy yo'sinda olib bordi. Mutafakkir merosi ulkan xazina bo'lib, uni o'rganishda arab va fors tillarini bilish kamlik qiladi. Aqida, fiqh, tavsir, hadis, tarix kabi ilmlar bo'yicha ham muayyan tayyorgarlikka ega bo'lishni taqozo etadi.

Xulosa. Bugungi kun dolzarbligidan kelib chiqib aytish mumkinki, ma'naviyat haqidagi qarashlarni tarixiy mezonlar asosida qayta ko'rib chiqish, ijtmoy ahamiyatini tiklash o'tkir zaruriyatdir. Shu sababli ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklash kamolotga yetaklovchi yo'l, yot g'oyalarga qarshi kurash usuli sifatida baholanmoqda. Chunki u xalqimizning, xususan, yoshlarimizning ruhan baquvvat, o'z vatani, millati manfaatlarining fidoiylari bo'lib yetishishlarida hamda yot mafkuralarga qarshi tura olishlarda juda muhim omil hisoblanad. Shu qadriyatlarning shakllanishga ta'sir qilgan omillarni va uning tariximizda ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy o'rnini to'g'ri belgilab, bugungi avlod tarbiyasidagi ahamiyatini ko'rsatish muhim ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Kishilarni qaysi millatga tegishli ekanligini xoh moddiy bo'lsin, xoh ma'naviy bo'lsin, qadriyatlariga qarab belgilaymiz. Milliy qadriyatlar esa umuminsoniy va shaxsiy qadriyatlarni bog'lab turuvchi xalqa bo'lish bilan birga millat kamolotini ko'rsatuvchi vositadir. U millat mavjudligining garovidir. O'z navbatida milliy qadriyatlar ham kichik xalqalardan iborat bo'lib, tasavvufiy qadriyatlar millatimiz mavjudligining oltin xalqasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdula Qahhor Shoshiy. Avliyolar kitobi. G'ofur G'ulom nomidagi NMIU, Toshkent. 2018.
2. Falsafa. Qomusiy lo'g'at. "Sharq", Toshkent. 2004.
3. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. "O'zbekiston", Toshkent. 2016.
4. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoni. "O'zbekiston", Toshkent. 2019.
5. Is'hoqova Z. So'fi Olloyor. "O'zbekiston", Toshkent. 2018.
6. Komilov N. Tasavvuf. "MOVAROUNNAHR", "O'ZBEKISTON". Toshkent. 2009.
7. Rahimov K. Movarounnahr tasavvuf tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). "Akademnashr", Toshkent. 2020.
8. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. "HILOL-NASHR", Toshkent. 2019.
9. Sirojiddinov Sh. So'fi Olloyor ilohiyoti. Imom al-Buxoriy jamg'armasi nashriyoti, Toshkent. 2001.
10. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 17-20.
11. Саматов Х. У. Махдуми Аъзам Касани-теоретик и продолжатель тариката Накшбандия //Востоковедение: история и современность. – 2018. – С. 273-277.
12. Usmonov F. Problems of modern computer ethics //American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 6. – C. 26-32.